

GTAR 17.07.51

Ilmiy maqolae

**B.I. Qodirova**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston
(E-mail: kodirova.b86@gmail.com)*

Qozoq she'riyatidagi "Серізаяқ" janri: Abay an'anasi va badiiy tuzilma

Annotatsiya. Ushbu maqolada qozoq adabiyotshunosligida muhim o'rın tutuvchi "серізаяқ" she'riy shaklining badiiy-strukturaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. "Серізаяқ" – har bandi sakkiz misradan iborat bo'lib, unda 5 va 7-8 bo'g'inli misralar uyg'unlashuvi kuzatiladi. Abay Qunanboyev ushbu shaklni poetik ijodga joriy qilgan va uni falsafiy, tanqidiy, didaktik g'oyalarni ifodalash vositasi sifatida mukammallashtirgan. Maqolada shoir ijodining o'ziga xos janr xususiyatlari, qofiyalanish tizimi va mazmuniy chuqurligi yoritilgan. Shuningdek, "серізаяқ"ning o'zbek tilidaqi aniq ekvivalenti mavjud emasligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Abay Qunanboyev, серізаяқ, qozoq she'riyati, she'riy shakl, janr, bo'g'in, qofiya, adabiyotshunoslik, badiiy tuzilma, Abayshunoslik

DOI: <https://doi.org/10.71078/jnsk3x53>

Qabul qilindi: 09.08.2025; Ma'qullandı: 29.09.2025; Onlayn mavjud: 3.10.2025.

Ma'lumki, qozoq klassik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, atoqli shoir, ma'rifatparvar va mutafakkir Abay (Ibrohim) Qo'nonboyev Semipalatinsk viloyatining Chingiztog' tog' tizmasi etagida joylashgan Qashqabuloq hududida (hozirgi Qozog'iston Respublikasining Abay tumani) dunyoga kelgan. Yosh Ibrohim dastlab Ahmad Rizo madrasasida to'rt yil tahsil olib, bu davrda arab va fors tillarini o'rgangan. Aynan shu davrda u o'ziga "Abay", ya'ni "ehtiyyotkor" ma'nosini anglatuvchi taxallusni tanlagan. Madrasadagi ta'lim jarayonida u Sharq mumtoz adabiyotining yirik vakillari – Sa'diy Sherazi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Sherazi, Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviy va Nodira kabi mutafakkirlarning asarlarini mutolaa qilgan. Qozoq akademik yozuvchisi M.Avezovning aytishicha, Abay ayniqsa "Alisher Navoiyni o'ziga "eng yaqin ustoz" deb biladi va asarlaridan o'rnak oladi...". Biz quyida mana shunday buyuk qozoq adibi Abay Qo'nonboyev ijodi bilan bog'liq bo'lgan, u asos solgan "серізаяқ" adabiyotshunoslikka oid terminini tahlil qilishga harakat qildik.

Серізаяқ – (qoz. сегіз – саккиз, аяқ – оyoq). Bu nom she'rning tashqi tuzilmasiga – sakkiz misradan iborat bandlarga ishora qiladi. Shuningdek, ushbu termin she'rning ichki ritmik va metrik sxemasini ham belgilaydi. Janr sifatida "серізаяқ" XIX asr oxirida, aynan Abay ijodida shakllangan bo'lib, uning 1889-yilda yozgan mashhur she'ri orqali keng tarqalgan. Bu janr an'anaviy xalq og'zaki ijodi shakllaridan, xususan, "terme" va "jir"lardan farq qilib, qat'iy ritm va qofiya tizimiga ega. Abay bu shaklga Yevropa poetikasidan o'zlashtirilgan elementlarni uyg'unlashtirgan holda yangicha mazmun va ruh bag'ishlagan.

Mazkur termin qozoq adabiyotshunosligidagi har bandi 8 misradan iborat bo'lgan murakkab tuzilishga ega she'r turi bo'lib, u qozoq she'riyati janriga qo'shilgan maxsus badiiy shakl, ya'ni she'r bandining namunasi hisoblanadi. Bu band 5 bo'g'inli misralar bilan 7-8 bo'g'inli misralarning izchil uyg'unlashuvi va aralashuvi asosida tashkil topgan. To'rt xil tovush ohangi asosida uyg'unlikni vujudga keltirib, unda 3- va 6-misralar uzoqdan o'zaro

bog'lanadi, qolgan qo'shni misralar esa o'zaro ohangdosh bo'ladi. Qisqa misralarda bo'g'inlar 3 va 2 bo'g'inli holda keladi. "Серізаяқ"да dastlabki ikki misrada shoirning badiiy-falsafiy xulosasi ifodalanadi. Mahorat bilan yaratilgan bu she'r shakli – qozoq poeziyasida alohida o'rin tutadi . Quyida Abay qalamiga mansub "Серізаяқ" she'ridan namuna keltiramiz:

Алыстан сермен,
Жүрекмен тербен,
Шымырлан бойга жайылган.
Қиудан шауып,
Қисынын тауып,
Тағыны жетіп қайырган –
Толғауы тоқсан қызыл тіл,
Сөйлеймін десен өзің біл.

Mazkur she'r yuqoridagi kabi har bandi 8 misradan iborat bo'lib, 5 bo'g'inli va 7-8 bo'g'inli misralarning tizimli qo'shilib, o'zaro aralashishi orqali hosil bo'lib, a-a-b, v-v-b, g-g tarzda qofiyalangan. Bunda 3- va 6-misralar o'zaro qofiyalangan, qolgan misralar esa o'zaro alohida qofiyalangan hisoblanadi. Bu kabi jihatlar keyingi bandlarda ham bir xil takrorlanadi:

Өткірдің жүзі,
Кестенің бізі
Әрнегін сендей сала алмас.
Білгенге маржан,
Білмеске арзан,
Надандар бәһра ала алмас.
Қиналма бекер, тіл мен жақ,
Көңілсіз құлақ – ойга олақ .

Abayshunoslik ilmida "Sakkiz oyoq" haqidagi fikrlar nihoyatda muhim o'rincutadi. Qozoq adibi M.Avezov "Sakkiz oyoq"ni "buyuk shoirning ijodiy faoliyatining o'rta davrida yaratilgan, har jihatdan badiiy mukammal, yirik bir asar" deb baholagan va bu baho hanuzgacha o'z kuchini yo'qotmagan. Akademik Z.Ahmetov "Sakkiz oyoq"ning mazmun va shakliga chuqur kirib, fikr bildiradi. U she'rda "hayotni donolik bilan idrok qilish, haqiqat vaadolatni izlash, xalqni to'g'ri yo'lga, madaniyat va taraqqiyot sari yetaklash kabi muhim g'oyalalar yaqqol ifodalangan"ini ta'kidlaydi. Shuningdek, u bu asarni musiqiy ijroda "kirish qismi, cho'qqi nuqtasi va yakuniga ega simfonik poema shaklidagi asar" deb ham baholaydi.

"Серізаяқ" o'Ichovi va band tuzilmasidan Shakarim Qudoaberdi o'g'li, Ahmad Baytursin o'g'li, Muqag'ali Maqatayev kabi boshqa ko'plab shoirlar ham o'z ijodlarida foydalanganlar .

"Серізаяқ" terminining o'zbek tilidagi aniq, to'liq ekvivalenti mavjud emas, ya'ni bu termin qozoq adabiyotshunosligiga xos milliy she'riy shakl hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, qozoq adabiyotida Abay Qo'nonboyev ushbu she'riy shaklni joriy qilgan va mukammallashtirgan. "Серізаяқ" uslubida yozilgan she'rlar orqali Abay o'zining falsafiy, tanqidiy, didaktik g'oyalalarini ifoda etgan.

Foydalilanigan adabiyotlar

Әдебиеттану терминдерінің сөздігі. (1996). Құрастырушылар З.Ахметов, Т.Шаңбаев. Алматы, Ана тілі.

Дәдебаев, Ж. (2010). Абай және ұлттық идея. Алматы, Қазақ университеті.

Қирабаев, С. (1998). Абайтану тағылымдары. Алматы, Мектеп.

Құнанбаев, А. (1995). Шыгармалар жинағы. Алматы, Жазушы.

Zharmukhamedov, M. (2009). Kazakh Poetic Forms in Comparative Context. Almaty, Arys Publishing.

References

- Dadebayev, Zh. (2010). *Abai and the National Idea*. Almatyб Kazakh University.
- Dictionary of Literary Terms. (1996). Compilers Z. Akhmetov, T. Shangaibayev. Almaty, Ana Tili.
- Kirabayev, S. (1998). *Lessons of Abai Studies*. Almaty, Mekter.
- Qunanbayev, A. (1995). *Collected Works*. Almaty, Zhazushy.
- Zharmukhamedov, M. (2009). *Kazakh Poetic Forms in Comparative Context*. Almaty, Arys Publishing.

Б.И. Кодирова

Шароф Рашидов атындағы Самарқанд мемлекеттік университеті,
Самарқанд, Өзбекстан.
(E-mail: kodirova.b86@gmail.com)

Қазақ поэзиясындағы «Сегізаяқ» жанры: Абай дәстүрі және көркемдік құрылымы

Аңдатпа. Бұл мақалада қазақ әдебиеттануында маңызды орын алғатын «Сегізаяқ» поэтикалық формасы қарастырылады. «Сегізаяқ» – әр шумағы сегіз жолдан тұратын, 5 және 7–8 буынды жолдардың кезектесуі арқылы құрылатын өлең түрі. Абай Құнанбаев бұл форманы қазақ поэзиясына енгізіп, оның көмегімен философиялық, сыншылдық және дидактикалық ойларын жеткізген. Зерттеуде рифмалық ерекшеліктері, шумақ құрылымы және оның көркемдік мәні талданады. Бұл форманың өзбек әдеби дәстүрінде дәлме-дәл баламасы жоқ екендігі атап өтіледі.

Түйін сөздер: Абай Құнанбаев, сегізаяқ, қазақ поэзиясы, поэтикалық форма, жанр, буын, рифма, әдебиеттану, көркемдік құрылым, абайтану

B.I. Qodirova

Sharof Rashidov Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan
(E-mail: kodirova.b86@gmail.com)

The “Segizayaq” Genre in Kazakh Poetry: Abay’s Tradition and Artistic Structure

Abstract. This article explores the poetic form “Segizayaq”, which holds a significant place in Kazakh literary studies. “Segizayaq” is a poetic structure consisting of eight lines per stanza, with a combination of 5- and 7-8-syllable lines. Abay Qunanbayev introduced and perfected this form, using it to convey philosophical, critical, and didactic ideas. The paper analyzes its rhyme scheme, stanzaic structure, and artistic value. It is also noted that this poetic form has no exact equivalent in the Uzbek literary tradition.

Keywords: Abay Qunanbayev, segizayaq, Kazakh poetry, poetic form, genre, syllable, rhyme, literary studies, artistic structure, Abay studies.

Muallif haqida ma'lumot::

Qodirova B.I. – dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat universiteti, Samarcand, O'zbekiston. ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6281-0111>

Автор туралы мәлімет:

Кодирова Б.И. – доцент, Шараф Рашидов атындағы Самарқанд мемлекеттік университеті, Самарқанд, Өзбекстан. ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6281-0111>

Information about authors:

Qodirova B.I. – Associate Professor, Sharof Rashidov Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan. ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6281-0111>